

**IJTIMOY MUHOFAZAGA MUHTOJ BOLALARDA VATANPARVARLIK RUHINI
RIVOJLANTIRISHDA IDENTITET INQIROZI, PSIXOLOGIK MOSLASHUV**

MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

**КРИЗИС ИДЕНТИЧНОСТИ, ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ И
ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЗМА У ДЕТЕЙ, НУЖДАЮЩИХСЯ В
СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ.**

**IDENTITY CRISIS, PSYCHOLOGICAL ADAPTATION PROBLEMS AND WAYS TO
SOLVE THEM IN THE DEVELOPMENT OF PATRIOTISM IN CHILDREN IN NEED OF
SOCIAL PROTECTION**

Mirzayeva Zebiniso Karimovna

Oriental universiteti Psixologiya yo‘nalishi

2 bosqich magistranti

*SOS O‘zbekiston bolalar mahallalari uyushmasi Samarqand shahridagi filiali “Ijtimoiy yetimlikni
oldini olish xizmati” psixologi*

Мирзаева Зебинисо Каримовна

Восточный университет, факультет психологии

магистрант 2-го цикла

психолог, «Служба предотвращения социальной сиротства», Самаркандское отделение

Ассоциации детских кварталов «СОС Узбекистана»

Mirzayeva Zebiniso Karimovna

Oriental University, Psychology Department

2nd cycle master's student

Psychologist, “Social Orphanage Prevention Service”, Samarkand branch of the SOS Uzbekistan

Children's Neighborhoods Association

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda vatanparvarlik ruhini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari kompleks tarzda tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida ushbu toifadagi bolalarda kuzatiladigan identitet inqirozi, ijtimoiy beqarorlik, emotsional yetishmovchilik hamda psixologik moslashuv muammolarining sabablari aniqlanadi. Shaxsning o‘zligini anglash jarayonidagi uzilishlar vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, maqsadli tarbiyaviy dasturlar, psixologik maslahat va psixokorreksion metodlar orqali mavjud muammolarni

bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy pedagoglar, psixologlar hamda ta'lim muassasalari mutaxassislari uchun metodik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhofaza, vatanparvarlik, identitet inqirozi, psixologik moslashuv, tarbiyaviy metodlar, bolalar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, milliy ong, psixologik yordam, rivojlanish, strategiya, muammolar

Abstract

This article comprehensively analyzes the psychological and pedagogical aspects of developing a sense of patriotism in children in need of social protection. The study identifies the causes of identity crisis, social instability, emotional deprivation, and psychological adaptation problems observed in this category of children. It is scientifically proven that disruptions in the process of self-awareness negatively affect the formation of a sense of patriotism. The article proposes ways to eliminate existing problems through social support mechanisms, targeted educational programs, psychological counseling, and psychocorrectional methods. It also substantiates the effectiveness of pedagogical approaches aimed at the formation of national values, historical memory, and civic responsibility. The results of the study are of methodological and practical importance for social pedagogues, psychologists, and specialists in educational institutions.

Keywords: social protection, patriotism, identity crisis, psychological adaptation, educational methods, children, social support, national consciousness, psychological assistance, development, strategies, challenges

Аннотация

В данной статье всесторонне анализируются психолого-педагогические аспекты развития чувства патриотизма у детей, нуждающихся в социальной защите. Исследование выявляет причины кризиса идентичности, социальной нестабильности, эмоциональной депривации и проблем психологической адаптации, наблюдаемых у этой категории детей. Научно доказано, что нарушения в процессе самосознания негативно влияют на формирование чувства патриотизма. В статье предлагаются пути устранения существующих проблем посредством механизмов социальной поддержки, целевых образовательных программ, психологического консультирования и психокоррекционных методов. Также обосновывается эффективность педагогических подходов, направленных на формирование национальных ценностей, исторической памяти и гражданской ответственности. Результаты исследования

имеют методологическое и практическое значение для социальных педагогов, психологов и специалистов образовательных учреждений.

Ключевые слова: социальная защита, патриотизм, кризис идентичности, психологическая адаптация, воспитательные методы, дети, социальная поддержка, национальное сознание, психологическая помощь, развитие, стратегии, проблемы

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar sharoitida yosh avlod tarbiyasi dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalar bilan ishlash masalasi davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, kam ta'minlangan yoki ijtimoiy xavf guruhiga mansub oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda shaxsiy identitetning barqaror shakllanmasligi, o'zlikni anglashdagi uzilishlar hamda psixologik moslashuv qiyinchiliklari tez-tez uchray turadi. Bunday holatlar ularning ijtimoiylashuv jarayoniga, ma'naviy kamolotiga va vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Identitet inqirozi shaxsning o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglashida, milliy va fuqarolik qadriyatlarini qabul qilishida muhim psixologik to'siq bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi, mehr-muhabbat va e'tibor tanqisligi, ijtimoiy stigma va chetlanish holatlari bolalarda ishonchsizlik, begonalashuv va beqarorlik hissini kuchaytiradi. Natijada ular o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmaydi, jamiyat bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatishda qiyinchilikka duch keladi. Shu bois, ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda sog'lom identitetni shakllantirish va psixologik moslashuvni qo'llab-quvvatlash masalasi ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi.

Vatanparvarlik ruhini rivojlantirish esa nafaqat ma'naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi, balki shaxsning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish omili hamdir. Milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalarini anglash bolalarning jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida identitet inqirozi va moslashuv muammolarini bartaraf etish, bolalarda ijobiy "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish hamda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish orqali vatanparvarlik ruhini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda identitet shakllanishi va psixologik moslashuv muammolari masalasi psixologiya, pedagogika hamda ijtimoiy ish sohalarida keng o'rganilgan. Shaxs identiteti nazariyasi dastlab E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u identitet inqirozini o'smirlik davrining markaziy psixososial muammosi sifatida talqin etadi. Eriksonning fikricha, shaxsning o'zini anglash jarayonidagi uzilishlar kelajakdagi ijtimoiy rollarni qabul qilishda qiyinchilik tug'diradi. Keyingi tadqiqotchilar identitetni ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash omillari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilganlar.

Psixologik moslashuv muammolari bo'yicha ilmiy manbalarda ijtimoiy stress omillari, travmatik tajribalar va emotsional deprivatsiya asosiy sabab sifatida ko'rsatiladi. A. Maslou va K. Rogersning gumanistik yondashuvlari shaxsning o'zini namoyon qilishi va ijobiy "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirishda qo'llab-quvvatlovchi muhit muhimligini asoslab beradi[11]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa rezilyentlik (psixologik bardoshlilik) tushunchasi ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarning moslashuv salohiyatini oshirishda asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda[13].

O'zbekiston pedagogika va psixologiya maktabi vakillari tomonidan shaxs kamoloti, identitet shakllanishi va ma'naviy tarbiya masalalari keng tadqiq etilgan. M. G'. Davletshin shaxs psixologiyasi sohasidagi izlanishlarida ijtimoiy muhit va tarbiyaning bola ruhiy rivojlanishiga ta'sirini asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi shaxsda ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi [4].

E. G'oziyev yosh davrlari psixologiyasi doirasida o'smirlik davrida o'zlikni anglash jarayoni keskinlashishini, aynan shu bosqichda identitet inqirozi yuzaga kelishi mumkinligini ilmiy asosda izohlagan. Uning tadqiqotlarida tarbiya va ijtimoiy muhitning barqarorligi sog'lom "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi[8].

I. Karimovning ma'naviyat va milliy qadriyatlar haqidagi asarlarida vatanparvarlik yoshlar tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Unda milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani asrash fuqarolik ongini shakllantirishning muhim sharti ekani ta'kidlanadi[6].

Shuningdek, N. Jo'rayev va Q. Nazarov ma'naviyat nazariyasiga oid tadqiqotlarida milliy identitet va fuqarolik mas'uliyati tushunchalarini yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq holda yoritganlar [5]. Ularning fikricha, ma'naviy tarbiya va ijtimoiy muhit uyg'unligi shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi [7]. Tahlil etilgan ilmiy manbalar ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolarini hal etishda ma'naviy-axloqiy tarbiya hamda tizimli ijtimoiy-pedagogik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda vatanparvarlik ruhini rivojlantirish jarayonida identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va kompleks yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy bosqichda mavzuga doir mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, psixologik va pedagogik konsepsiyalar tahlil qilindi hamda umumlashtirildi. Identitet inqirozi va psixologik moslashuv tushunchalarining mazmun-mohiyati qiyosiy tahlil asosida ochib berildi.

Empirik bosqichda kuzatish, suhbat, anketa so'rovi va psixodiagnostik metodlar qo'llanildi. Jumladan, bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash, o'zlikni anglash holatini baholash va vatanparvarlik qadriyatlariga munosabatini o'rganishga qaratilgan savolnomalar ishlab chiqildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, umumlashtirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida statistik tahlil elementlari, taqqoslash va interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning ishonchligi natijalarni bir necha metodlar asosida tekshirish hamda ularni o'zaro solishtirish orqali ta'minlandi. Metodologik yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ijtimoiy-pedagogik ta'sir mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari 50 ijtimoiy muhofazaga muhtoj bola ishtirokida o'tkazilgan kuzatish, suhbat va savolnomalar orqali olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Bolalar o'zlikni anglash va identitet shakllanishi ko'rsatkichlari bo'yicha Reytning "Shaxsiy identitet skeyli" metodi orqali baholandi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 62% da identitet inqirozi o'rta va yuqori darajada aniqlangan, bu ularning o'z rolini va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda qiyinchilikka duch kelayotganini ko'rsatadi.

Psixologik moslashuvni o'rganish uchun "Moslashuv ko'rsatkichlari" testidan foydalanganimizda, bolalarning 48% da tashqi muhitga moslashuv past, 30% da o'rta va 22% da yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, maktabdagi ijtimoiy chekinish va psixologik stress omillari moslashuv darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Vatanparvarlik ruhini baholash uchun ishlab chiqilgan maxsus savolnoma natijalariga ko'ra, bolalarning 56% da milliy qadriyatlar va tarixiy merosga nisbatan qiziqish past, 28% da o'rta va 16% da yuqori. Shu bilan birga, maqsadli tarbiyaviy tadbirlar (tarixiy viktorinalar, guruh mashg'ulotlari,

interaktiv o'yinlar) o'tkazilgandan so'ng, kuzatilgan 20 bolada vatanparvarlik ko'rsatkichlari 35% ga oshgani qayd etildi. Bu ijtimoiy-pedagogik va psixologik ta'sirning samaradorligini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolari bilan bog'liq bo'lgan bolalarda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun tizimli pedagogik yondashuv, individual psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhitni yaxshilash zarur. Natijalar aniq ko'rsatmoqda: kompleks yondashuv orqali bolalarda ijtimoiy moslashuv va milliy ongni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Shuningdek, identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolari mavjud bolalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish jarayoni faqat bir tomonlama pedagogik ta'sir bilan cheklanishi yetarli emas. Bu jarayon bolalarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, oilaviy va maktab muhitining barqarorligi bilan uzviy bog'liq. Masalan, oilaviy e'tibor va mehr-muhabbat yetishmovchiligi bolalarda o'zini ijtimoiy jihatdan begona his qilish, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchning pasayishi va ijtimoiy faollikning kamayishiga olib keladi. Shu bois, pedagogik va psixologik ta'sirlarni individual xususiyatlarni hisobga olgan holda rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [12].

Empirik natijalarga ko'ra, bolalarda milliy qadriyatlar va tarixiy merosga qiziqishni oshirish uchun interaktiv metodlar samaraliroq hisoblanadi. Masalan, guruh mashg'ulotlari, tarixiy viktorinalar, dramatisatsiya va rol o'yinlari orqali bolalar o'zlarini faol ishtirokchi sifatida his qiladilar, bu esa ularning milliy ongini va vatanparvarlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Kuzatishlar shuni tasdiqladiki, tizimli va maqsadli pedagogik ishlar natijasida bolalarning 35% da vatanparvarlik ko'rsatkichlari ortgan, bu esa intervensiya samaradorligini amalda ko'rsatadi.

Shuningdek, ijtimoiy muhitni yaxshilash va bolalarga doimiy psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish identitet inqirozi va moslashuv muammolarini kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, maktabdagi ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, tengdoshlik qo'llab-quvvatlashini kuchaytirish va psixolog bilan muntazam ishlash bolalarning o'zlikni anglashini mustahkamlaydi, shuningdek ularni jamiyatga moslashuvchan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Kompleks yondashuv – pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarning uyg'unligi – ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda milliy ong va vatanparvarlik ruhini rivojlantirishda asosiy shartdir. Shu nuqtai nazardan, kelajakdagi tadqiqotlar bu yondashuvning turli yosh guruhlari va ijtimoiy sharoitlarda samaradorligini aniqlashga qaratilishi mumkin. Umuman olganda, bolalarda barqaror identitetni shakllantirish va psixologik moslashuvni mustahkamlash milliy qadriyatlar va

vatanparvarlik tarbiyasini samarali amalga oshirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan [10].

Bu natijalar psixologlar, pedagoglar va ijtimoiy xizmat mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va bolalarning ijtimoiy hamda ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimli va integrativ yondashuv kelajakda ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarning jamiyatga moslashuvini va fuqarolik ongini mustahkamlashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda identitet inqirozi va psixologik moslashuv muammolari vatanparvarlik ruhining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kuzatish va psixodiagnostik tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, bolalarning katta qismida o'zlikni anglash va ijtimoiy moslashuv darajasi past, bu esa ularning milliy qadriyatlar va tarixiy merosga bo'lgan qiziqishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, maqsadli tarbiyaviy tadbirlar, guruh mashg'ulotlari va psixologik qo'llab-quvvatlash orqali bolalarda vatanparvarlik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshishi kuzatildi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, identitet inqirozi va moslashuv muammolarini bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur: ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy va psixokorreksion metodlar, shuningdek milliy qadriyatlar va tarixiy xotirani rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar birgalikda qo'llanilishi lozim. Tadqiqot natijalari psixologlar, pedagoglar va ijtimoiy xizmat mutaxassislari uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalarda barqaror identitetni shakllantirish va psixologik moslashuvni mustahkamlash vatanparvarlik ruhini rivojlantirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Bu esa ushbu yo'nalishda kompleks pedagogik va psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
4. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2002.

VOLUME-6, ISSUE-3

5. Jo'rayev N. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
8. G'oziyev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2004.
9. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company, 1968.
10. Luthar, S. S., Cicchetti, D., & Becker, B. The Construct of Resilience: A Critical Evaluation and Guidelines for Future Work. *Child Development*, 2000, 71(3), 543–562.
11. Maslow, A. H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954.
12. Masten, A. S. Ordinary Magic: Resilience in Development. New York: Guilford Press, 2014.
13. Rogers, C. R. On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961.
14. Santrock, J. W. Adolescence. 17th Edition. New York: McGraw-Hill Education, 2021.

